

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol tovarlari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 32,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi. Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish kelgusida ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 2024-yil 1-aprel holatiga



Savdo-16 105



**Boshqa turdagи
xizmatlar-9 823**



**Yashash va ovqatdanish
bo‘yicha xizmatlar-3 393**



Tashish va saqlash-1 015




Sog‘lijni saqlash-1 027



Axborot va aloqa-706

**2024-yilning 1-aprel holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida
xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlarning ulushi, % da**
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2024-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar 37,9 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etmoqda.


Sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,7 % ga teng bo‘ldi.

2024-yilning yanvar-martida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 7 857,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan o‘sish 114,0 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, savdo xizmatlari (25,2 %), transport xizmatlari (24,4 %), moliyaviy xizmatlar (16,6 %), ta’lim sohasidagi xizmatlar (5,0 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmati (4,6 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2024-yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan
xizmatlar tarkibi, % da**



**Yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2024-y.</i>	<i>2023-y.</i>		
Jami xizmatlar	31 963	7 857,8	6 260,8	114,0	100,0

*shu jumladan xizmat
turlari bo'yicha:*

aloqa va axborotlashtirish xizmati	662	360,1	308,6	113,5	4,6
--	-----	-------	-------	-------	-----

moliyaviy xizmatlar	178	1 308,6	1 054,8	115,9	16,6
transport xizmati	1 037	1 916,3	1 452,7	114,0	24,4

shu jumladan:
avtotransport
xizmatlari

yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 374	398,4	292,7	117,2	5,1
--------------------------------------	-------	-------	-------	-------	-----

savdo xizmatlari	16 259	1 978,5	1 665,8	109,7	25,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	716	192,2	149,4	117,4	2,4

*Samarqand viloyati
ijtimoiy iqtisodiy holati*



	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>davomi</i>
		<i>2024-y.</i>	<i>2023-y.</i>			
ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 312	391,2	274,0	138,9	5,0	
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 016	165,4	120,4	122,7	2,1	
ijara xizmatlari	84	217,3	173,0	115,2	2,8	
kompyuterlarni va maishiyl tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	174	223,3	185,1	108,0	2,8	
boshqa shaxsiy xizmatlar	516	350,0	290,3	108,8	4,5	
memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	224	105,7	94,9	102,2	1,3	
boshqa turdag'i xizmatlar	4 411	250,8	199,1	111,3	3,2	

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (jami xizmatlarning 25,2 foizi) va transport (24,4 foizi) xizmatlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (138,9 foiz), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (122,7 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi,
(2024-yil yanvar-mart, jamiga nisbatan % da)**



**Transport
xizmatlari
24,4 %**



**Moliyaviy
xizmatlar
16,6 %**



**Aloqa va
axborotlashti
rish xizmatlar
4,6 %**



**Kompyuterlarni
ta'mirlash
bo‘yicha
xizmatlar 2,8 %**



**Ko‘chmas mulk
bilan bog‘liq
xizmatlar 2,4 %**



**Ijara
xizmatlari
2,8 %**

**Savdo
xizmatlari
25,2 %**



**Ta‘lim
sohasidagi
xizmatlar
5,0 %**



**Shaxsiy
xizmatlar
4,5 %**



**Boshqa
xizmatlar
5,3 %**



**Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari
5,1 %**




**Me‘morchilik
sohasidagi
xizmatlar
1,3 %**



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 25,2 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtida, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'satilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

2024-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- ▣ Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- ▣ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

**2024-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm**

Transport xizmatlari

1 916,3 mlrd. so'm



Moliyaviy xizmatlar

1 308,6 mlrd. so'm



Savdo xizmatlari

1 978,5 mlrd. so'm




Boshqa xizmatlar

739,2 mlrd. so'm



**Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlari**

360,1 mlrd. so'm




**Ta'lim sohasi
xizmatlari**

391,2 mlrd. so'm



Shaxsiy xizmatlar

350,0 mlrd. so'm



Kompyuterlarni ta'mirlash

223,3 mlrd. so'm bo'yicha xizmatlar



**Yashash va ovqatlanish
xizmatlari**

398,4 mlrd. so'm




Ko'chmas mulk bilan

192,2 mlrd. so'm bog'liq xizmatlar



2024-yilning yanvar-mart oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo‘lib, 1 916,3 mld. so‘mni tashkil etgan, (2023-yilda 1 452,7 mld. so‘m) nisbatan 114,0 foizni tashkil etgan, shuningdek ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar 1 308,6 mld. so‘m (2023-yilda 1 054,8 mld. so‘m), savdo xizmatlari 1 978,5 mld. so‘m (2023-yilda 1 665,8 mld. so‘m) va aloqa va axborotlashtirish xizmati 360,1 mld. so‘m (2023-yilda 308,6 mld. so‘m) hissalariga to‘g‘ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan
bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, % da
(2024-yil yanvar-mart oylari uchun)**




Shu bilan birga, eng yuqori o‘sish sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (22,7 %) va ta‘lim sohasidagi xizmatlar (38,9 %) qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 16,6 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2024-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 308,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 115,9 % ni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



**2024-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
xizmatlar ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
Samarqand viloyati	7 857,8	114,0	1 863,0	111,6
Samarqand sh.	3 162,2	120,3	5 391,7	117,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	215,0	111,0	2 262,7	109,3
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	241,0	109,1	1 387,3	106,5
Bulung‘ur	212,8	109,3	1 050,8	106,9
Jomboy	335,7	109,2	1 765,7	106,5
Ishtixon	284,6	108,5	1 029,5	106,2
Kattaqo‘rg‘on	279,7	108,4	949,9	106,3
Qo‘shabot	152,4	108,6	1 072,5	106,5
Narpay	258,8	109,3	1 136,1	107,4
Payariq	345,7	109,0	1 261,5	106,4
Pastdarg‘om	549,5	109,5	1 430,6	107,1
Paxtachi	161,2	108,8	1 057,4	107,1
Samarqand	599,4	122,3	2 191,5	119,8
Nurobod	157,4	109,1	966,2	106,9
Urgut	566,1	109,8	1 009,7	107,1
Toyloq	336,3	101,2	1 517,6	98,7

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’ati Samarqand tumani (122,3 %) va Samarqand shahriga (120,3 %) ga to‘g‘ri keldi.


Samarqand viloyati bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning ulushi Samarqand shahri (40,2 foiz), Samarqand tumani (7,6 foiz), Urgut tumani (7,2 foiz) va Pastdarg‘om (7,0 foiz) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘sish sur’atlari Ishtixon tumani (108,5 %), Kattaqo‘rg‘on tumani (108,4 %) hamda Toyloq tumanlarida (101,2 %) kuzatildi.

2024-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 863,0 ming so‘mni tashkil qildi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkich hududlar o‘rtasida Samarqand shahrida 5 391,7 ming so‘mdan Kattaqo‘rg‘on tumanida 949,9 ming so‘mgacha oraliqni tashkil etadi.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor
xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati
(2024-yil yanvar-mart oylari uchun)**



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida 5 391,7 ming so‘mga teng bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 117,7 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o‘sishi Samarqand (119,8 %) tumanida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi, Kattaqo‘rg‘on (949,9 ming so‘m), Nurobod (966,2 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

**2024-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
savdo xizmatlari hajmi**




Samarqand sh.	658,5 mlrd. so‘m
Samarqand t.	195,5 mlrd. so‘m
Pastdarg‘om	145,8 mlrd. so‘m
Urgut	139,3 mlrd. so‘m
Jomboy	110,0 mlrd. so‘m
Ishtixon	89,2 mlrd. so‘m
Toyloq	85,1 mlrd. so‘m
Kattaqo‘rg‘on t.	81,6 mlrd. so‘m
Payariq	80,6 mlrd. so‘m
Narpay	75,6 mlrd. so‘m
Oqdaryo	71,9 mlrd. so‘m
Bulung‘ur	60,7 mlrd. so‘m
Kattaqo‘rg‘on sh.	57,0 mlrd. so‘m
Qo‘shrabot	45,4 mlrd. so‘m
Nurobod	42,2 mlrd. so‘m
Paxtachi	40,1 mlrd. so‘m

Savdo xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida (658,5 mlrd. so‘m), Samarqand (195,5 mlrd. so‘m) va Pastdarg‘om (145,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko‘rsatkich Paxtachi (40,1 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.

2024-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 978,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,7 % ni tashkil etdi.


**2024-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2023-yilga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Samarqand (115,3 %) va Nurobod tumanlarida (112,4 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Toyloq tumanida (106,5 %) qayd etildi.

**2024-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Samarqand shahri (33,3 %) va Samarqand (9,9 %) tumanini egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Paxtachi (2,0 %), Nurobod (2,1 %) va Qo‘shrabot (2,3 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2024-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 1 916,3 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 114,0 % ni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘sish sur’ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida (643,8 mlrd. so‘m) va Samarqand tumanida (154,0 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Nurobod tumanida (39,9 mlrd. so‘m) qayd etildi.